



MILLIY TA'LIM TIZIMI VA JAHON TA'LIM MUHITINI INTEGRATSIYALASH MASALALARI

Jo`raboyeva Munisa Haitboy qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi.

Turatova Zamira Bo`riboevna

Jizzax viloyati Zarbdor tumani 1-maktab

Boshlang`ich sinf oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy ta'lim tizimi asosida qilingan islohotlar keltirilgan. Islohotlar natijasida erishilgan yutuqlar va jahon ta'lim muhitini integratsiyalash masalalari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, milliy ta'lim, integratsiya, ta'lim muhiti, kadr, islohot, fan, shaxs, uzluksiz ta'lim .

Аннотация: В данной статье представлены реформы, проведенные на базе национальной системы образования. Представлены мнения и комментарии о достижениях, достигнутых в результате реформ и вопросах интеграции мирового образовательного пространства.

Ключевые слова: Образование, национальное образование, интеграция, образовательная среда, кадры, реформа, наука, личность, непрерывное образование.

Abstract: This article presents reforms carried out on the basis of the national education system. Opinions and comments are presented on the achievements achieved as a result of reforms and issues of integration of the global educational space.

Key words: Education, national education, integration, educational environment, personnel, reform, science, personality, lifelong education.

Ta'lim - jamiyatning asosiy institutsional bo'linmalaridan biri bo'lib, u shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy funksiyalari va rollarini bajarishi, uning ijtimoiy mavqei va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladigan soha hisoblanadi¹. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon ta'lim tizimi siyosat darajasiga ko'tarilib, muhim sohalardan biri sifatida etirof etilmoqda. Ta'lim oluvchilar zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, tanqidiy va kreativ

¹ Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ворис, 2006.



fikrlovchi kadr bo'lib yetishishlari uchun jahon ta'lim tizimi tajribasida mutlaqo yangi bo'lgan ta'limning milliy modelini tashkil etish, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish masalasi muhim o'rin egallaydi. Bu haqida mamlakatimizning birinchi prezidenti I. A. Karimov o'z nutqida shunday ta'kidlagan : "Kadrlardan samara olish uchun ularni tayyorlashga mablag' sarflash lozim. Agar biz haqiqattan ham qashoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo'lsak, yoshlarni tayyorlash bilan juda jiddiy ravishda shug'illanishimiz, zamonaviy kasbni egalashda ularga yordam berishimiz kerak. Bu sohada hasislik yaramaydi. Bizga milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturi kerak." ² va bu dasturga shunday tarif beradi : " Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur tasodifan paydo bo'lgani yo'q - bu aynan shu xalqimizning qon-qoniga singigan ma'rifat qonuniyatlarining davomi"³. 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " to'g'risida qonun qabul qilinadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ushbu qonuning ayrim bandlarini qayta tahrirdan o'tkazib ta'limning milliy modelini ishlab chiqadi. Shuni alohida takidlash kerakki, Respublika ta'lim tizimini yangilashda O'zbekiston hukumati ta'lim jarayonini o'rganib chiqib, ta'limning milliy dasturi tayyorlandi.

Ta'limning milliy modeli – O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida isloh qilish, ta'lim tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy metodologik, amaliy pedagogik yondashuvlar majmui. Ta'limning milliy modelida ma'naviy intellektual jihatdan barkamol shaxsning o'z ijodiy qobiliyatini to'la namoyon etishini taminlash ko'zda tutiladi.⁴ Ta'limning milliy modelida kadr tayyorlashda xalqimizga xos milliy qadryatlar maksimal darajada inobatga olingan. Barkamol shaxsni shakllantirishda eng samarali yo'llar hisobga olingan. Shuningdek, shaxsni shakllantirishi zarur bo'lgan kasbiy va ma'naviy sifatlar uyg'unligi hisobga olingan. Ushbu modelda jahon ta'lim tizimi tajribasiga yangilik bo'lgan ta'limning ilmiy modelida shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish kabi 5 ta qismdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limning milliy modeli ta'riflanib, uning asosiy vazifalari belgilab berilgan. So'ngi yillarda Sh. M. Mirziyoyev tomonidan murakkab o'tish davrda maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit , o'qituvchi kasbining nufuzi pasayib ketgani, inavatsion ta'lim

² " Barkamol avlod orzusi" "sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent-1999

³ " Barkamol avlod orzusi" "sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent-1999

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClimning_milliy_modeli



texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagan sohalarda yuzaga kelgan bir necha muammolarni ijobiy hal etish, kadr tayyorlash tizmini tubdan isloh qilish maqsadida muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Xalq ta'lim tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 21 ta qarori qabul qilindi. 2017-2019-yillar davomida respublika hududidagi 157ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi va maktablarga ulug' allomalarimiz, yozuvchi va shoirlarimiz nomi ostida ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", barcha viloyatlarda prezident maktablari va xususiy maktablarga asos solindi. Shuningdek, birinchi prezidentimiz tomonidan asos solingan kadrlar tayyorlash milliy dasturini ota-onalar, jamoatchilikning fikrini inobatga olib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'lim tizimiga qaytish orqali o'zgartirish kiritdi. 2017-2023-yillar oralig'ida o'qituvchilarning oyligi o'rtacha 2.5 baravar oshdi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlarga 50% gacha qo'shimcha oylik ustamolari to'lanmoqda va bunday pedagog kadrlarning mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilab qo'yildi. Tadbiq etilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'lim tizimiga 12 871 nafar erkak o'qituvchi qaytdi. Maktab ta'lim tizimiga kiritilgan o'zgartirishlar sababli kollejlarda kontingent qisqarishi yuzaga keldi. Ushbu vaziyatdan samarali foydalanish maqsadida 7 ta kollej va akademik litseylar negizida yangi 3ta oliy ta'lim muassasalari filiallari va 1 ta oliy o'quv yurtiga asos solindi.

Ta'lim tizimi yangilanayotgan davrda, bola ongli ravshda boshqariladigan va maxsus bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlov jarayonida maktabgacha ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Ya'ni, maktabgacha tayyorlov sohasining asosiy vazifasi bolalar hayotini rivojlantirish orqali ularni maktabga yanada sifatli va samarali tayyorlash hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, islohotlar maktabgacha ta'lim muassasi tizimida ham amalga oshirildi. Jumladan, "Xonodon bog'chasi", "Fermer xo'jaligi bog'chasi", "bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab" majmualari yuzaga keldi, Qisqa to'rt yil ichida mamlakatda bolalar bog'chalari soni uch barobarga va bolalarni qamrab olish 28% dan 54%gacha ko'tarildi. bolalarni maktabgacha ta'limiga qamrovi kengaytirildi, pedagog hodimlar shu sohalarga jalb etil qmrovi kengydi va ularning oyligi boshlang'ich sinf o'qituvchisi oyligi bilan tenglashtirildi.

Ta'lim jarayonidagi islohotlar davomida xorijiy davlatlardagi yetkchi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va ularni kuchaytirish, o'quv jarayonini xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sivilizatsiya rivojining XXI asrda kuzatilayotgan yangi tendensiyalari va muammolari, jahonda turli jabhalarda kechayotgan tezkor integratsiya



jarayonlari, global iqtisodiyotning o'sib borayotgan hukmronligi va keng tarqalayotgan tizimli raqamlashuv, ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog'liq yangi vazifalar zamon talabiga javob beradigan oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan samarali modellarni izlashni taqozo etadi.⁵ Bu ma'noda integratsiya fanlarning differentsiyalashuvi natijasida tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklariga tuzatish kiritish va ularning o'zaro bog'liqligini taminlash shakli sifatida tushunish mumkin. Ta'lim tizimini integratsiya jarayonida jahon ta'lim tizimida qo'llaniladigan usullarni O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etish vaqtida uni DTS talablariga, " Ta'lim to'g'risidagi " qonunga va mintalitetga moslashtirish bosqichlaridan o'tadi. Bu jarayonga misol qilib, universitetlarga moliyaviy erkinlik berish, oliy ta'lim tizimini kredit modul tizimiga bosqichma – bosqich o'tkazish, 55 ta oliy ta'lim muassasasida 21 ta horijiy davlatning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida 83 ta bakalavr yo'nalishi va 63 ta magistratura bo'yicha kadrlar tayyorlovi yo'lga qo'yildi, ayrim maktablar, jumladan prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablarda STEAM talim dasturi asosida o'qitish tizimi joriy etilishi integratsiyalashuvga yorqin misollardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar o'zining dolzarbligi va amaliy ahamiyatiga ko'ra boshqa sohalardagi islohotlardan qolishmaydi. Chunki, Yurtimiz prezidenti ta'kidlaganiday "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim , ta'lim va tarbiyadir ".

References:

1. " Barkamol avlod orzusi" "sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent-1999.
2. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ворис, 2006.
3. [<https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-standartlarni-joriy-etish--jahon-talim-makoniga-integratsiya-sharti>].
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClimning_milliy_modeli].

⁵ <https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-standartlarni-joriy-etish--jahon-talim-makoniga-integratsiya-sharti>